



## SUN'IY INTELEKT VA UNING YURIDIK SOHADAGI O'RNI

**Karimova Shaxzoda Sobitjonovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari”

yo'nalishining magistranti

E-mail: mehribonlarim5358@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10208348>

### ARTICLE INFO

Received: 19<sup>th</sup> November 2023

Accepted: 26<sup>th</sup> November 2023

Online: 27<sup>th</sup> November 2023

### KEY WORDS

*Sun'iy intellekt, Dartmut universiteti, 1956-yil, "SIRI" ismli raqamli yordamchi, chatbot, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, sun'iy intellektni rivojlantirish yuzasidan milliy strategiyalar, afzalliklar, kamchiliklar, Dubaydagi sun'iy intellekt markazi, "Xavfsiz shahar" loyihasi, Amazon va eBay saytlari.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada sun'iy intellektning ta'rifi, afzalliklari va kamchiliklariga to'xtalib o'tilgan. Sun'iy intellekt bo'yicha xorijiy tajriba hamda olimlar faoliyati o'rganilgan. Sun'iy intellektning yuridik sohadagi ahamiyati ko'rib chiqilgan holda uning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari yoritilgan. Nizolarni hal qilishda sun'iy intellektga to'xtalib o'tilgan. Sun'iy intellekt doirasida Rossiya tajribasi va Dubaydagi sun'iy intellekt markazi haqida ma'lumot keltirilgan. Sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha AQSH, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlarining yurisdiksiyalari ko'rib chiqilgan.*

### Kirish

Bugungi kunda ilm-fan va shu bilan birgalikda raqamli texnologiyalar rivojlanib borayotganining natijasida ko'plab yangiliklar hayotimizga kirib kelmoqda. Ular turli xil sohalar faoliyatiga o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Hozirgi kunda ko'pchilik axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt dan faoliyatlarida samarali foydalanishni asta-sekin yo'lga qo'yib bormoqda. Bu kabi jarayonlar yuridik sohada ham amalga oshirilmoqda. Ushbu maqola orqali sun'iy intellekt haqida ma'lumot, uning afzalliklari, kamchiliklari va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellektning yuridik sohadagi o'rni ham ko'rib chiqiladi.

Raqamli muhit sharoitida sun'iy intellektni alohida ajratib ko'rsatish kerak bo'ladi. Sun'iy intellektni tabiiy intellektning sun'iy shakldagi ko'rinishi tarzda talqin qilish mumkin. Sun'iy intellekt atamasi 1956-yilda paydo bo'lgan. AQSHning Dartmut universitetida shu masalaga bag'ishlangan anjumanda amerikalik informatika sohasidagi olim Jon Makkarti bu atamani birinchi marta ishlatib tarixda qolgan. Sun'iy intellekt bu an'anaviy tarzda insonning vakolati deb hisoblangan ijodiy funksiyalarning intellektual tizimlar tomonidan bajarilishi hamda kommunikatsion va texnologik munosabatlarning murakkab majmui bo'lib, u mantiqiy fikrlash, o'z harakatlarini boshqarish va tashqi sharoitlar o'zgargan taqdirda o'z qarorlarini tuzatish qobiliyatiga ega [1].



Sun'iy intellekt o'z-o'zidan ishlash qobiliyatiga ega emas. Uning samarali ishlashi uchun unga "katta hajmdagi ma'lumotlar" kerak. "SIRI" ismli raqamli yordamchi yaratuvchilaridan biri Lyuk Julia shunday degan edi: "Sun'iy intellektga asoslangan mashina mushukni 95% aniqlik bilan taniy olishi uchun bizga 100 000 ga yaqin mushukning surati kerak bo'ladi [2]. Bu esa jarayon bosqichlarining oson emasligini ko'rsatib beradi.

Yaqin vaqtlardan beri sun'iy intellekt juda ko'p sohalarni qamrab olmoqda. Aynan yuridik sohada ham bu kabi jarayonlar namoyon bo'lmoqda. Sababi, sun'iy intellekt o'zining ijobiy tomonlari bilan insonlarning og'rini yengil qilayotganidadir. Shu bois yuridik sohada sun'iy intellektni tartibga solish katta ahamiyat kasb etadi.

## **Material va metodlar**

Tadqiqotning normativ asosini qonun, farmon, strategiya, statistik ma'lumot va ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar tashkil qiladi. Metodologik asosi esa tahlil qilish, taqqoslash, induksiya, mantiqiy deduksiya, umumlashtirish va tavsiflash usullaridan iboratdir.

## **Tadqiqot natijalari**

Sun'iy intellektni belgilaydigan tushuncha vaqt o'tishi bilan o'zgardi, ammo uning negizida har doim odamlar kabi fikrlay oladigan mashinalar yaratish g'oyasi bo'lgan. Sun'iy intellekt odamlar kabi fikrlash va ularning harakatlarini taqlid qilish uchun dasturlashtirilgan mashinalarda inson aqlini simulyatsiya qilishni anglatadi. Sun'iy intellekt o'zining bir qancha afzalliklariga ega.

Birinchidan, samaradorlik va aniqlik. Bunda sun'iy intellekt kengaytirilishi mumkin va uning samaradorligi juda kichik vazifalarni ham, o'ta murakkab vazifalarni ham charchamasdan qayta-qayta bajarish uchun ishlatilishi mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, inson xatosini kamaytirish. Uchinchidan, 24/7 mavjudligi. U uzoq vaqt ishlash uchun dasturlashtirilgan bo'lishi va zerikmasdan, chalg'itmasdan hamda hatto charchamasdan doimiy ravishda ishni bajarishi mumkin. To'rtinchidan, kamroq xavf. Xavfli missiyalarda uning imkoniyatlaridan foydalanish inson farovonligi va xavfsizligi uchun xavfni kamaytiradi. Misol uchun, u o'rmon yong'inlari tahdidlarini bashorat qilishga va dronlar yordamida unga qarshi kurashishga yordam beradi. Beshinchidan, tezkor qarorlar. Sun'iy intellektni boshqa texnologiyalar bilan birgalikda qo'llash orqali biz mashinalarga qaror qabul qilish va harakatlarni insonga qaraganda tezroq bajarish imkonini bera olamiz. Katta ma'lumotlar to'plamlarini birlashtirib, modellashtirish va bashorat qilishda kuchliroqdir [3,1].

Sun'iy intellektning afzalliklari bilan birga uning kamchiliklari ham mavjud. Bularga: yuqori narx (sun'iy intellektni yaratish katta xarajatlarni talab qiladi, chunki ular juda murakkab mashinalardir), ishsizlik, ijodkorlikning yetishmasligi, tuyg'ularsiz va tajribaga ko'ra yaxshilanish yo'q [3,2]. Umuman olganda, sun'iy intellektning ijobiy tomonlarini to'g'ri yo'naltirgan holda salbiylarining ustida yaxshiroq ishlash kerak bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun foydalaniladigan robototexnika mehnat bozorini, shu jumladan mehnat sharoitlarini tubdan o'zgartirish imkoniyatiga ega. Yuridik xizmat ko'rsatish sohasida yuridik texnologiyalarning keng qo'llanilishi ham buning dalilidir. Amazon kabi platformalarda xarid qilish mumkin bo'lgan tovarlar uchun yangi savdo kanallari chakana bozorlar kabi bozorlarni o'zgartiradi hamda shaharda biznes va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning mavjudligiga va shu bilan birga ijtimoiy o'zaro munosabatlarning tabiatiga ta'sir qilishi mumkin. Raqamli



texnologiyalardan foydalanilganda, ta'sir ko'rsatadigan sohalaridagi barcha tegishli normalar, masalan, Germaniyadagi milliy qonunlar, fuqarolik, jinoiy va ommaviy huquqlar, shuningdek, ular bilan bog'liq sohalar, hamda transmilliy va xalqaro huquq normalari, Yevropa Ittifoqi qonunlari odatda qo'llaniladi. Kompyuterlar va mashinalar inson ongining kuchlarini taqlid qilish, bashorat va takliflar qilish, muammolarni hal qilish, tanlov qilish, ma'lumotlarni to'plash hamda tahlil qilish uchun ishlatiladi. Axloqiy, ijtimoiy yoki iqtisodiy nuqtayi nazardan raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt istalgan yoki kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin [4]. Aynan mana shu jarayonlarda javobgarlik masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt asosida biror bir huquqbuzarlik sodir bo'lsa, uning javobgarligi qanday bo'ladi? Kim javobgar bo'lishligi ham yuridik sohada yechimini kutayotgan masalalardan biridir. Bu borada Sardor Bozarov xorijiy mamlakatlar qonunchiligida sun'iy intellekt tomonidan sodir etilgan delikt uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortishning bir qancha yondashuvlarini ilmiy jihatdan tahlil etgan. Unga ko'ra, birinchi model, "The Perpetration-by-Another" (boshqa shaxs orqali sodir etish). Ikkinchi model, "The Natural-Probable-Consequence Liability" (tabiiy, ehtimoliy oqibat). Uchinchi model, "The Direct Liability" (to'g'ridan to'g'ri javobgarlik) kabi turlarga bo'lgan [5,1]. Ushbu modellarning turi va xarakteridan kelib chiqqan holda javobgarlik masalalari belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida ham sun'iy intellektga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda. Bu borada qaror va farmonlar ham mavjud. Ammo sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha milliy konsepsiya, alohida qonun va kodekslar yo'q. 2023-yilning boshiga kelib, 40 dan ortiq mamlakatlarda sun'iy intellektni rivojlantirish yuzasidan milliy strategiyalar qabul qilingan. Ular qatoriga AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Singapur va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Bulardan tashqari robototexnika sohasidagi ilk aniq axloqiy standart – "Robotlar va robototexnika tizimlarini axloqiy loyihalash va qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"si 2016-yilda Buyuk Britaniyada qabul qilingan. Yevropada esa "Yevropa Ittifoqi axloq direktivasi" ishonchli va xavfsiz bo'lgan sun'iy intellektni yaratish maqsadini birinchi o'ringa qo'yadi. Ayni vaqtda, xuddi shu kabi axloqiy tashabbuslar Xitoy, Kanada, AQSH va boshqa davlatlarda ham ishlab chiqilmoqda [5,2]. Bu kabi jarayonlar sun'iy intellektni nafaqat rivojlantirish va shu bilan birgalikda huquqiy jihatdan ham mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yuridik sohada sun'iy intellektning o'rni borgan sari ortib bormoqda. Sun'iy intellekt yordamida murakkab bo'lgan jarayonlar ko'p vaqt talab etilmagan holda hal qilinmoqda. Bu, albatta, ijobiy natija, ammo shu bilan birgalikda sun'iy intellektni tartibga solish muammolari ham mavjud. Ushbu muammolar bilan shug'ullanadigan zamonaviy yuridik tadqiqotchilar orasida Jek Balkin, Nikolas Petit, britaniyalik huquqshunos Richard Saskind, Pitsburg universitetidan amerikalik tadqiqotchi Kevin Eshlini e'tirof etish kerak. Sun'iy intellektni tartibga solish ma'lum bir yondashuv asosida shakllanadi. Ko'p sonli tarafdorlarga ega bo'lgan ikkita asosiy yondashuv mavjud: huquqiy (rasmiy) va texnologik. Huquqiy yondashuv, xuddi qonunning o'zi kabi konservativ, texnologik yondashuv esa texnologik rivojlanish kabi aksincha [6]. Tadqiqotchi M.Uillikning qarashlariga ko'ra, sun'iy aqlli kompyuterlar ularni yaratgan turlarga tobora ko'proq o'xshab bormoqda. Mikroskopik darajada, noaniqlik uchun inson qobiliyati bilan ishlaydigan kompyuter sxemalarini qurishga urinishlar qilinmoqda [7].



Bu ham kelajakda qaysidir ma'noda sun'iy intellektning yana ham rivojlanib ketishiga olib kelishi mumkin.

Sun'iy intellekt uchun markaz tashkil etgan davlatlar qatorida Dubayni alohida keltirish joiz. Dubayda sun'iy intellekt markazi ochilgan. Bu haqida Birlashgan Arab Amirliklari valiahd shahzodasi Hamdan bin Muhammad bin Rashid Ol Maktum ma'lum qilgan. Arabian Business nashriga ko'ra, markaz 1000 nafar davlat xizmatchisini generativ sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha o'qitishni rejalashtirgan. Markazning tashkil etilishi davlat xizmatlarini yaxshilash va davlat xizmatchilarining mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Yangi tashkilot 20 dan ortiq mahalliy va xalqaro startaplarni qo'llab-quvvatlaydi. 30-may kuni U-Ask sun'iy intellektga asoslangan chatbot BAA hukumatining rasmiy portalida jonli efirga chiqqani e'tiborga arziydi. Platforma Microsoft va PricewaterhouseCoopers Middle East konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan. Chatbot generativ sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanadi hamda arab va ingliz tillarida davlat xizmatlari haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, shaxsiy tavsiyalar berishi ham mumkin [8]. Bular esa davlat xizmatlarining samarali, ish yukining kamayishi va tezkor bo'lishiga o'z xissasini qo'shadi.

Sun'iy intellektning yuridik sohadagi o'rni va muammolari, huquqiy tizimning unga taalluqli masalalar bilan qanday muloqot qilishi hamda boshqarishi kerakligini o'z ichiga oladi. Uning yuridik sohadagi o'rni haqida muhim masalalar mavjud. Bularga:

1. Huquqiy muammolar. U bilan bog'liq huquqiy muammolar, shuningdek, u tomonidan yaratilgan ma'lumotlar va algoritmlar to'g'risida muomala qilish, mulkni aniqlash, haq-huquqni ta'minlash va zararlariga javob berish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.
2. Mulk va intellektual mulk. Sun'iy intellektni yaratishda, algoritmlar, ma'lumotlar va boshqa intellektual mulkning mavjudligi hamda himoyasi muhimdir. Bu mulkni aniqlash, intellektual mulkning egasi va foydalanuvchi munosabatlari, litsenziyalash hamda mulkni himoya qilish kabi masalalar tizimning muhim qismidir.
3. Javobgarlik va xavfsizlik. Uni ishlatishda javobgarlik va xavfsizlik muammolari ham yo'q emas.
4. Etik va yuridik tartibotlar ham bu jarayonda katta ahamiyatga egadir.

Sun'iy intellekt yuridik sohada yanada rivojlanayotgan bo'lsa-da, yuridik tizim va qonunlar, sun'iy intellektni boshqarish, huquqiy muomala qilish hamda muammolarni hal etishni amalga oshirishga oid masalalarni hal qilishda muhimdir. Yuridik sohada sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlash, huquqiy muloqotlarni belgilash va siyosiy qarorlar hamda qonunlar asosida tartibotlarni rivojlantirish jarayonlarida ham muhim o'rin egallaydi.

Yuridik sohada nizolarni hal qilish borasida sun'iy intellektdan foydalanib kelinmoqda. Stenford, Kolumbiya universiteti va boshqalarning tajribasi bu borada ancha samarali ahamiyatga egadir. Amazon va eBay saytlari bevosita elektron tijoratga ixtisoslashgan. U yerdagi shartnomalar elektron tarzda tuziladi hamda rasmiylashtiriladi. Agarda nizo kelib chiqsa, kelib chiqqan nizo ushbu platformada tuzilganligi sababli sun'iy intellekt tomonidan aynan Amazon va eBayning o'zida hal etib berilishi mumkin. Xalqaro broker yoki birja bozorlarida nizolarni elektron tartibda hal qilish juda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi [9].



Nikolay Arxiereevning fikriga ko'ra, sud-huquq tizimi faoliyatiga sun'iy intellektni joriy etishning o'ziga xos jihatlari ancha murakkab soha bo'lib, bu borada ko'p narsa ma'lum emas. Rossiya sud jarayonlarida sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish uni yana ham samarali, tezkor, obyektiv qiladi va zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini qondiradi. Sud tizimiga sun'iy intellektni joriy etish, jumladan, quyidagilarni ta'minlashi mumkin: sud qarorlarini qo'llab-quvvatlash tizimlaridan foydalanish orqali sud faoliyati sifati va samaradorligini oshirish; fuqarolarning, tashkilotlarning, davlat hokimiyati organlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish samaradorligini oshirish (sud muhokamasi ishtirokchilarining intellektual yordamchilaridan foydalanish, fuqarolarni biometrik identifikatsiyalash texnologiyalarini qo'llash orqali sud majlislarida masofaviy ishtirok etishni kengaytirish hisobiga); nizolarni kamaytirish, sud ishi natijalarini bashorat qilishning ekspert tizimlarini joriy etish orqali huquqiy ongini oshirish; qonun hujjatlaridagi o'zgarishlardan kelib chiqib, sudlar yuklamasining o'zgarishini bashorat qilish tizimlarini yaratish [10]. Bu esa ishning sifatiga va katta ma'lumotlarni samarali tarzda shakllantirishga olib keladi.

Rossiya odatda sun'iy intellektga "foydalanish lekin ehtiyotkorlik" yondashuvini qo'llaydigan va uning milliy xavfsizlikka ta'sirini hisobga olgan holda qabul qilingan davlat sifatida qaraladi. Rossiya 2015-yildan buyon "Xavfsiz shahar" loyihasini rivojlantirishga sarmoya kiritmoqda, uning asosiy komponenti ma'lumotlarni avtomatik uzatish funksiyasi bilan jihozlangan butun mamlakat bo'ylab videokuzatuv tizimlari hisoblanadi. Loyiha doirasida Moskva shahrida 170 000 ga yaqin kameralar o'rnatildi. Ularning ko'pchiligi yuzni tanib olish qobiliyatiga ega. G'arb bilan o'sib borayotgan qarama-qarshilik kuzatuvga yo'naltirilgan sun'iy intellekt dasturining tarqalishini faqat tezlashtiradi. Yuzni tanish texnologiyasiga ega kuzatuv kameralari global pandemiya sharoitida o'z samaradorligini isbotladi. Kameralar real vaqt rejimida politsiya organlariga ma'lumotlarni uzatadi va shu tarzda taqdim etilgan ma'lumotlar karantin buyruqlarini kuchli ijro etish uchun asosiy raqamli aktivlarni tashkil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Moskva politsiyasi ma'lumotlar orqali karantin tartib-qoidalarining bir necha yuzlab buzilishini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Texnologiya halokatli koronavirusga qarshi kurash vositasi sifatida samarali bo'lsa-da, kuzatuvdan noto'g'ri foydalanish yoki suiiste'mol qilishning yaqqol xavfi ham mavjud [11].

Sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha har bir davlatning o'z yurisdiksiyalari mavjud. Shulardan AQSH, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlarinikini ko'rib o'tamiz. AQSHda sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Xususan, strategik va ruxsat beruvchi aktlarga quyidagilarni kiritish mumkin: Prezidentning "Sun'iy intellektda Amerika yetakchiligini saqlab qolish to'g'risida"gi Farmoni (2019-yil), "Davlat boshqaruvida ishonchli sun'iy intellektdan foydalanishni rag'batlantirish to'g'risida"gi Farmon (2020-yil), Milliy sun'iy intellekt tashabbusi (Strategik rejalashtirish qonuni, 2021-yil), Federal avtonom avtomobil siyosati (2016-yil) va O'z-o'zidan boshqariladigan avtomobillarni sinovdan o'tkazish uchun 35+ davlat me'yoriy ruxsatnomalari [12,1].

Janubiy Koreya robototexnika uchun eng yaxshi yurisdiksiya hisoblanadi. Janubiy Koreya Xalqaro Robototexnika Federatsiyasining 2014-yildan 2020-yilgacha sanoat robotlarini joriy etish bo'yicha reytingida birinchi o'rinni egallagan. Ularning strategik va ruxsat beruvchi aktlari quyidagilar: "Aqlli robotlarni ishlab chiqish va tarqatishni rag'batlantirish to'g'risida"gi Qonun (Hukumat, 2008-yil) va "Milliy axborotlashtirish



to'g'risida"gi qonun loyihasi (axborot jamiyati, jumladan, sun'iy intellekt sohasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarga munosabat (1995-yil, 2020-yil qayta ko'rib chiqilgan)) [12,2].

Yaponiya davlatining bu boradagi tajribasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yann LeKun "Yaponiya sun'iy intellekt dasturchilari uchun jannatga aylandi" degan fikrni bildirgan. Yaponiyada Sun'iy intellekt strategiyasi (yangilangan 2022-yil) mavjud. 2022-yil may oyida "Yo'l harakati to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritilib, 4-darajali avtonom avtomobillar va avtomatlashtirilgan yetkazib berish robotlarining ishlashiga ruxsat berildi. 2023-yil may oyidan kuchga kirdi [12,3]. Bularning natijasi sifatida sun'iy intellektni aynan ushbu davlatlarda rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

## Xulosalar

Ayni vaqtda texnika va texnologiya rivojlangan davrda yashar ekanmiz faoliyatimizni ularsiz tasavvur eta olmaydigan darajaga yetib bormoqdamiz. Bularning o'ziga yarasha ijobiy tomonlari bo'lgani bilan bir qatorda salbiy tomonlari ham yo'q emas. Hozirgi kunda sun'iy intellekt alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida uning bir nechta afzalliklari va xorijiy davlatlar tajribalari haqida ma'lumot berib o'tildi. Ushbu afzalliklarni hamda tajribalarni samarali yo'lga qo'ygan holda sun'iy intellektni yuridik sohada qo'llash ham ko'plab ijobiy natijalarni berishi mumkin. Bu jarayonda sun'iy intellektning kamchiliklarini ham yoddan chiqarmaslik zarur. Ushbu kamchiliklarni bartarf etgan holda uni ijobiy tomonga yo'naltirish har qachongidan ham katta ahamiyatga egadir. Umuman olganda, sun'iy intellekt insonlar o'g'rini yengil qilishi va o'zining ijobiy tomonlari bilan yordamchi vazifasida bo'lishi kerak bo'ladi. Sun'iy intellekt najot yoki xavf tarzda namoyon bo'lishi ham insonlarning o'ziga bog'liq hisoblanadi. U hech qachon insondan aqlli bo'lib ketmasligi va unga yuklangan ma'lumotlar asosida ijobiy natijalar uchun xizmat qilishi lozim. Vaqt o'tgani sari sun'iy intellektning turli xil imkoniyatlarga ega bo'lgan turlari vujudga kelmoqda. Hattoki, insonning ovozi birga-bir tarzda o'xshatib gapira oladigan va istalgan tildagi matnlarni o'qib bera oladiganlari ham mavjuddir. Bu bir tomondan yaxshi, ammo tanganing boshqa tomoni bo'lgani kabi uning ham yomon tomonlari bor. Sun'iy intellekt kelajakda bundan-da, rivojlansa rivojlanadiki aslo ortda qolmaydi. Bundan ellik yil ilgari hozirgi sun'iy intellektni tasavvur qila olish qiyin edi, ammo u aynan hozir mavjuddir. Ellik yildan keyin uning bajaradigan vazifalari rivojlanib insonlarga ijobiy natija uchun yordam berishi va shu bilan birga aksincha holatga olib kelinishi ham yo'q emasligini doimo nazardan chetga chiqarmaslik darkor. Mamlakatimizda sun'iy intellektni tartibga solish bo'yicha alohida qonun mavjud emas. Aynan mana shu tomonni yaxshilab ko'rib chiqish hamda xorijiy davlatlarning tajribalarini samarali o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## References:

1. "Tashkent Law Spring" III Xalqaro yuridik forumi. [https://www.youtube.com/live/OWvxw4\\_p6lw?si=e3QoVPLDTuBmEzJb](https://www.youtube.com/live/OWvxw4_p6lw?si=e3QoVPLDTuBmEzJb).
2. Bozarov Sardor Sohibjonovich. Sud hokimiyati organlarida sun'iy intellektning qo'llanilishi: nazariya va amaliyot // Yurisprudensiya huquqiy ilmiy-amaliy jurnal. 2022, 3-son, -B.39-47 (12.00.00; №15).



3. <https://iskulubu.com/manset/yapay-zekanin-en-onemli-5-avantaji-ve-dezavantaji/>.
4. Sardor Yusupov. Legalization of Artificial Intelligence: Significance and Necessity. Miasto Przyszłości 26 (2022): 48-50. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/417>.
5. S. S. Bozarov. Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasining avtoreferati. – Toshkent, 2023-yil.
6. Filipova I.A. Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi. Rus tilidan tarjima Z. O. Kuvandikov, mas'ul muharrir A. R. Axatov – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. – 179 bet.
7. Willick M.S. Artificial Intelligence: Some Legal Approaches and Implications // AI Magazine. – 1983. Vol. 4. №2. P.5-16.
8. <https://habr.com/ru/news/740898/>.
9. “Olim bilan suhbat” loyihasida yuridik fanlar doktori Bahramova Mohinur Bahramovnaning “Xalqaro arbitraj faoliyatini raqamlashtirish va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari” mavzusi doirasidagi intervyusi. [https://youtu.be/gHAtqG0U\\_8?si=gurIh8kFo\\_w8Hae\\_](https://youtu.be/gHAtqG0U_8?si=gurIh8kFo_w8Hae_).
10. [https://rapsinews.ru/judicial\\_analyst/20220907/308254120.html](https://rapsinews.ru/judicial_analyst/20220907/308254120.html).
11. Jaemin Lee. Artificial Intelligence and International Law. Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2022, p-261.
12. “ICTweek – 2023” haftaligi doirasida “Sun'iy intellekt kelajagi va global integratsiya” mavzusidagi xalqaro sammit.